

OLIV TA'LIM MUASSASASI PROFESSOR-O'QITUVCHILARIDA KASBIY DEFORMATSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Xayitova Mohizoda Bohodirjon qizi

Bucheon university

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarida kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelish sabablari, xususan, ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik faoliyatning yuqori emotsional yuklamasi, kasbiy stress, institutsional bosim, kommunikativ zo'riqish va motivatsiya pasayishi kabi omillar kasbiy deformatsiyaning asosiy manbalari sifatida yoritiladi. Shuningdek, mazkur holatning ta'lim sifati va shaxsiy farovonlikka ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy deformatsiya, oliy ta'lim, professor-o'qituvchi, ijtimoiy-psixologik omillar, kasbiy stress.

Kirish. Jahonda xalq ta'limining tizimli tash-kil etilishi va boshqarilishi, muntazam va barqaror takomillashtirib borilishi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ustuvor vazifa sanaladi. Ta'lim jarayonini muntazam takomillashtirib borish jarayonida esa ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash o'ta muhimdir. Shu jumladan, respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy oshirib borish bugunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Loyiha doirasida OTM professor-o'qituvchilarini ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan. OTM professor-o'qituvchilarini ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish orqali esa tanlovda obyektivlik masalasi hal etilishiga erishiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Oliy ta'lim muassasalarida har yili turli xil maqsadlarda professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyati yuzasidan nomzodlarni saralash bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Bugungi kunda ushbu tadbirlar asosan OTM huzurida tuzilgan "Jamoatchilik kengashi" tomonidan amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, jamoatchilik kengashi bir necha nafar a'zodan iborat komissiya tarkibida faoliyat olib boradi. Ayrim hollarda ushbu komissiyaning faoliyatini tashkil etish va uning baholash tizimi bilan bog'liq holatlarda nomzodlarni yetarli-cha to'laqonli baholash uchun zarur mezonlar cheklanganlik xarakteriga ega bo'ladi. Aksariyat hollarda asosan nomzodlar to'g'risidagi hujjatlar bilan cheklanishga to'g'ri keladi. Demakki holatning vaqt jihatdan, iqtisodiy jihatdan hamda nomzodning ushbu faoliyatga mosligi va yaroqliligini ta'minlovchi xolis baholash xususi-yatiga ega bo'lgan tizimni ishga tushirish zaruriyati mavjud. Bu esa "Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga psixologik yaroqliligi diagnostikasi tizimini shakllantirish" kompyuter dasturiy ta'minotiga ehtiyoj borligidan dalolat bermoqda.

Jahon psixologiyasida kompyuter psixodiagnostikasi masalasi XX asrning 40-yillaridan boshlangan muammo hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotganligi esa barcha faoliyat sohaslarida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Psixologik diagnostika ilmiy tadqiqotning nazariy sohasi va psixologlar amaliy faoliyati yo'nalishi sanaladi. Bu holat esa axborot texnologiyalarining psixologik diagnostika sohasiga jadal kirib kelayotganligi holatga fanlararo yondashuvni taqozo etadi. Amalga oshirilayotgan diagnostika tadbirlarini tizimli, operativ, tejamkor va xolis baholashga ehtiyoj mavjudligini tasdiqlamoqda.

Axborot texnologiyalaridan psixologik diagnostika maqsadlarida foydalanish jahon tajribasida 1970-1980 yillarda keng avj olgan bo'lsa-da, ammo 1980 yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida ushbu diagnostika yondashuvi doirasidagi materiallarni mukammallashtirishga zarurat borligi kuzatildi. Oqibatda mutaxassislarning sa'y-harakatlari tufayli kompyuter psixodiagnostikasi sohasida ijobiy o'zgarishlar kirib kela

boshladi. 1990-yillarning o'rtalarida global internet tizimida ishlaydigan ilk bora masofaviy test tizimi yo'lga qo'yildi.

Biz uchun ko'proq tajriba vazifasini o'tayotgan yondash ilmiy ma'lumotlar bazasi rus psixologiya maktabi vakillari tomonidan erishilgan ilmiy yutuqlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu holatning psixologik diagnostika maqsadlarida axborot texnologiyalarining joriy etilishini qator klassik metodikalar misolida kuzatish mumkin bo'ladi. Ammo ushbu taqdim etilayotgan kompyuterda dasturlashtirilgan diagnostika vositalarining asosiy qismi individual metodikalarning tatbiqi bilan bog'liq.

Axborot texnologiyalarining psixologik diagnostika sohasiga tatbiqi bo'yicha ilk mehnat mahsuli sifatida AQSHda Skinner, Pakula, Bertram, Beylesslarning faoliyat natijalarini e'tirof etish mumkin (1980 yillar). Keyinchalik esa David B. Cohen, Webster J. (1992), Compeau D. (1996), tomonida amalga oshirilgan blankali test tizimining axborot texnologiyalari bo'yicha ekvivalenti shakllarining ishlab chiqilganligini aytib o'tish mumkin.

Rossiyada mazkur yo'nalishdagi ishlar salmog'i XXI asrning boshlarida ancha jadal kechdi. Bu borada Chervinskaya, Shelkovalar dasturlashtirilgan Spilberger-Xanin metodikasi, G.Yu. Ayzenk so'rovnomasini namuna sifatida keltirib o'tish mumkin.

Shuningdek, hozirgi kunda global Internet tarmog'ida rus tilida shakllantirilgan qator klassik psixodiagnostika metodikalarining veb-dasturlashtirilgan turlarini uchratish mumkin. Misol sifatida ularning ayrimlari nomlarini sanab o'tish mumkin. "Layfxaker" telegram-kanalida L.Sondining proyektiv testining veb-versiyasi, E. Bekning "Depressiya shkalasi", "Xavotirlanish darajasi shkalasi", B. Zungning "O'zining depressivlik darajasini baholash" shkalasi, Lyushern-ing rang testi, "Sahrodagi cho'l" testi, Ayzen-kning temperament diagnostikasi metodikasi, Leongarda - Shmishekning kengaytirilgan testi, Xek - Xessning nevrozni ekspressiv diagnostika metodikalari, Xollning emosional intellekt testi variantlari mavjud.

O'z navbatida Intellektual qobiliyatlar (Vek-sler testi, Kettell testi, Gilford testi, Torrens testi, Silverning rasmi testi, Amtxauera testi va boshqa testlar), Shaxs

xususiyatlari ("AKORD" test, Sondi testi, MMPI so'rovnomasi, Kettel-ning 16 RG' so'rovnomasi, Lyusherning rang testi va boshqa so'rovnomalar), Ishga layoqa-tlilik ("IDIKS" metodikalari, Tuluz-Pyeron testi, Xronorefleksometriya testi va boshqa testlar), Motivasiya ("Signal" metodikasi, Mehnat motiv-lari monitoringi va boshqa metodikalar), Shaxs-lararo munosabat ("Vektor" metodikasi, "Arka" apparaturali testi), Kasbiy saralash ("Mo'ljal" testining individual va guruhiiy qo'llash shakllari), Ijodkorlik qobiliyatlari (Torrens testi), Emosional intellekt (Uycha testi, "Emosional-art konstruk-siyasi") va ROFES apparaturali testlar majmui kompyuterlashtirilgan test to'plami sanaladi.

Bu yo'nalishda mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar toifasiga Buxoro OO va YeSTI huzuridagi "Ta'lim jarayonini kompyuter-lashtirish" muammoli ilmiy-tadqiqotlar labo-ratoriyasi va "Psixodiagnostika va pedagogik diagnostika" bo'limi xodimlari tomonidan yaratilgan, O'zbekiston Respublikasi Patent idorasi tomonidan qayd qilingan: DGU 00697 (31.10.2003) "Shaxsning aqliy rivojlanganlik darajasini o'rganish" tadqiqotini namuna sifatida keltirib o'tish mumkin. Ammo, professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga psixologik yaroqlilik darajasini baholash bo'yicha esa kompyuter dasturlashtirilgan tizimi uchramaydi.

Jumladan:

- professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga psixologik yaroqlilik darajasi aniqlanadi;
- professor-o'qituvchilarning regulyativ, kommunikativ va kognitiv kompetentsiyalari aniqlanadi;
- umumiy intellektuallik, sotsial va emot-sional intellektuallik darajalari aniqlanadi;
- kasbiy muhitga moslashuvchanlik imkoniyatlari o'rganiladi;
- shaxslilik xususiyatlari aniqlanadi;
- asab-psixik barqarorlik va frustratsiyali vaziyatlarga bag'rikenglilik darajasi aniqlanadi;
- psixologik diagnostika tizimi kompyuter dasturlashtirilgan shaklda amalga oshiriladi va ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida quyidagi holatlarni keltirib o'tish joiz:

- professor-o'qituvchilarning kasbiy-psixologik qiyofasini baholash mezonlari ishlab chiqiladi;
- professor-o'qituvchilarni kasbiy-psix-ologik saralashning ekspert baholash, "smol-ekspert" tizimi shakllantiriladi;
- professor-o'qituvchilarning sosial-psix-ologik yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik, peda-gogik kompetentlik, psixologik kompetentlik, sosial-kommunikativ kompetentlik darajalari va "professor-o'qituvchining psixologik portreti" diagnostik daturlash tizimi tayyorlanadi;
- oliy ta'lim muassasalariga ishga qabul qilinayotgan professor-o'qituvchilarni kasbiy saralash psixologik diagnostikasining "profes-sor-o'qituvchi-xodim" kompyuter dasturi ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Diagnostika uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotni ishlab chiq-ishda professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga yaroqliligini baholashga mo'ljallangan kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlarga tayaniladi. Dasturiy ta'minot nomzodlarni tanlash bo'yicha opera-tivlik, tejamkorlik va haqqoniylik tamoyillariga muvofiq ishlab chiqiladi.

"Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga psixologik yaroqliligi diagnostikasi tizimini shakllantirish" kompyuter dasturiy ta'minoti ta'lim muassasala-rida kadrlarni saralash, ularning tanlovini tashkil etish yuzasidan xolis natijalarga ega bo'lish va jarayonning natijaviyligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

"Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga psixologik yaroqliligi diagnostikasi tizimini shakllantirish" kompyuter dasturiy ta'minoti ta'lim muassasala-rida kadrlarni saralash, ularning tanlovini tashkil etish yuzasidan xolis natijalarga ega bo'lish va jarayonning natijaviyligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Xulosalar. Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, mazkur mezonlar oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni kasbiy saralash jarayoni uchun asosiy shartlar hisoblanadi va ularga muvofiq metodikalar tan-lanadi va amaliyotga taqdim qilinadi. Bu esa albatta o'z navbatida uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini

bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni xolisona kasbiy saralash va ularning kasbiy kompetensiyalarini baho-lash imkonini beradi. Dasturiy ishlanmani shakllantirishda peda-gog, psixolog va axborot-kommunikasiya sohasi mutaxassislaridan iborat ilmiy jamoa faoliyat olib boradi. Ilmiy jamoaning ilmiy-ijodiy ishlan-masi yakuniy shakli tanlovda ishtirok etadigan nomzodlarning xolis, ishonchli, haqqoniy va daVo qilayotgan lavozimiga yaroqli ekanligini tasdiqlovchi ko'rsatkichlarni taqdim etishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royhati:

1. Burrhus Frederic Skinner "The Technology of Teaching", New York: Appleton-Century-Crofts, 1968.
2. Djurayev D.U., Формирование системы психологической диагностики профессионального отбора профессоров и преподавателей в высших учебных заведениях, журнал Science and innovation №6 2022г., с.144-152. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7158176>.
3. Forer B. R. "The fallacy of personal validation: A classroom demonstration of gullibility", Journal of Abnormal and Social Psychology, 1949. P. 118.
4. Dickson D. H. and Kelly, I. W. "The 'Barnum Effect' in Personality Assessment: A Review of the Literature", Psychological Reports, 1985. P. 367.
5. Rasulov A. "O'qituvchi shaxsini psixodiagnostik test yordamida o'rganish", Pedagogik mahorat i/n jurnali, 2021 yil aprel, 3-8 betlar.